

Abdulla Qahhor



DAHSHAT

*Xotin-qizlarning burun zamonda ko'rgan
kunini bilmaysizlar, qizlarim, aytgan bilan ishonmaysizlar!..
To'raxon oyi*

Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi.

Bunday kechalarda odamzod qo'ymijoz g'uj bo'lib va nimanidir kutib jimgina o'tirishni xohlab qoladi.

Olimbek dodxoning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig'ilib, sandal atrofida o'tirishar edi. Dodxo har kecha taroveh namozidan keyin halqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to'zidi: xotinlardan biri uning sallasini oldi, biri chakmoniga qo'l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog'landi... Kundoshlarning eng kichigi — bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan kelinchak — ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi. Dodxo chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e'tibor qilmay, to'rga o'tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko'zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, hech narsa-hech narsa ko'rinmas edi.

Dodxo darchani zichlab yopib, joyiga o'tirib tasbeh o'girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'tkazayotgan bo'lsa ham, qulog'i g'uvillayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: "Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan..."

Uzbek go'ristoni o'zi xunuk, buning ustiga, go'riston haqida aytilmagan xunuk gap, to'qilmagan vahimali mish-mish qolgan emas. Haqiqatan, bunday kechalarda go'riston esiga tushgan har qanday odam, ayniqsa, dodxo singari payg'ambar yoshidan oshib, kafanligini sandiqqa solib qo'ygan kishi o'lishdan ham ko'ra go'ristonda yotishini o'ylaganida tiligacha sovuq ter chiqaradi.

Dodxo boshidan go'riston xayolini chiqarib tashlash uchun tasbehini qo'yib undan-bundan gapirgan bo'ldi, lekin hech kim bu gaplarga gap ulamadi.

Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalaganicha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o'tirgan yerida go'yo bir qarich cho'kkanday bo'ldi va tin olmay bir-biriga qaradi. Dodxo xotinlariga, ulardan ham ko'ra o'ziga taskin berish uchun o'rnidan turib darchaning bir tomonini ochdi. Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi. Dodxo pastga qaradi va suyunib ketganday: